

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174425>

QORAQALPOQ SHOIRI AJINIYOZ QO‘SIBOY O‘G‘LINING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

Sotimov O‘ktamboy Rajabovich

“Ichan-Qal’ a” davlat muzey-qo‘riqxonasi bo‘lim mudiri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li hayot yo‘li va ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, Firdavsiy, Sadiy, Navoiy, Maxtumquli, Sherg‘ozixon, Qutlimurod Inoq, Qiz Mengesh, Mo‘ynoq.

THE LIFE AND CREATIVE WORK OF THE KARAKALPAK POET AJINIYOZ QOSIBOY ULI

ABSTRACT

This article provides a brief overview of the life and creative activities of Ajiniyoz Qosiboy o‘g‘li, the great poet of the Karakalpak people.

Keywords: Kunxo‘ja, Ajiniyoz, Berdaq, Firdavsiy, Sadiy, Navoiy, Maxtumquli, Sherg‘ozixon, Qutlimurod Inoq, Qiz Mengesh, Mo‘ynoq.

XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asr boshlarida klassik adabiyotimizda shoirlarning ijodi katta ahamiyatga egadir. XIX-asrdagi qoraqalpoq adabiyoti klassik jihatdan ham o‘z ahamiyatga ega. Bunda Kunxo‘ja (1799-1880), Ajiniyoz (1824-1878), Berdaq (1827-1900), Utеш (1828-1902) kabi shoirlarni ro‘li ayniqsa ajralib turadi.

Shu davrdagi qoraqalpoq shoirlarning asarlari o‘z zamonidagi haqiqatni, xalqparvarlikni ifodalab bergan. Qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li 1824-yilda Qoraqlopog‘istonning Mo‘ynoq shahrida tug‘ilgan. Ota bobolari baliqchilik bilan shug‘ullanib oddiy hayot kechirishgan. Ajiniyozning onasi Nazira opa so‘zga chechan, iboli qoraqalpoq ayollardan bo‘lgan, dostonlarni yaxshi bilgan. Otasi esa Qo‘siboy shoir hamda ovchi (mernan) sifatida tanilgan. Ajiniyoz yoshligida onasidan erta judo bo‘lgan. Va ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. U ilk ta’limni ovul maktabda o‘qib savodini chiqargandan keyin, Xo‘ja Murod madrasasida ta’lim oladi. Tog‘asi Elmurod Buxoroda Mirob madrasasini tamomlagan va o‘z davrini bilimdon kishilaridan bo‘lgan. Ajiniyoz shu tog‘asi qo‘lida tarbiyalanib, ilm-fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Ajiniyoz madrasada o‘qishi bilan bir qatorda she’rlar ham yoza boshlagan. Elmurod tog‘asi Ajiniyoz 17 yoshga to‘lganda to‘satdan vafot qiladi. Tog‘asi vafotidan so‘ng Ajiniyoz o‘ziga yaxshi bir ustoz topa olmasdan alam istirobida ko‘p qinaladi. Ajiniyoz ovulidagi madrasada ta’lim olib so‘ngra bilimini oshirish maqsadida, Buxoro madrasasida keyinchalik Xivadagi Sherg‘ozixon, Qutlimurod Inoq madrasalarida ta’lim oladi.

U Xivada 1840-1844 yillarda ta’lim oladi. Madrasada diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlarni ham chuqur o‘zlashtiradi.

Shoir arab, fors, turkman, qozoq, o‘zbek eski adabiy tillarini yaxshi bilgan. U Firdavsiy, Sadiy, Navoiy, Maxtumquli kabi sharq adabiyoti klassiklari asarlarini o‘qigan va ulardan ko‘p narsalarni o‘rgangan. Tarixiy manbalarga qaraganda Sherg‘ozixon madrasasida o‘qib yurgan paytlarda, madrasa qayta tamirlanganligi sababli u o‘qishni Qutlimurod Inoq madrasasida davom etdiradi va shu yerda tamomlaydi.

U she’rlarida qozoqlarni hayotini ham yoritib o‘tgan. U qozoq shoirlari Istoy, Mahambet, She’rniyoni ijodi bilan ham tanishadi. So‘ngra o‘z ovuliga kelib Hamera degan qizga uylangan. Uning Negmatullo, Habibullo, Nematullo, uch nafar o‘g‘li va Kurzoda degan bir qizi bo‘lgan. Oilali bo‘lgandan so‘ng ham u qozog‘istonga borib ijodkor shoir-olimlar bilan munozaralar olib borgan. Bir necha yillar qozoqlar orasida

yurib dostonlar aytib, qo'shiqlar to'qigan. Ajiniyozning "Bo'zato've" dostoni Qoraqalpoq xalqining tarixini kuylovchi asaridir. Asarda XIX asrlardagi (1850) Qoraqalpoq xalqining Xiva xonligi bilan munosabati aytib o'tiladi. Ajiniyoz Xiva xonligiga 1858-1859-yillarda isyon ko'targanlikda ayblanib Xiva amaldorlari tamonidan Toshxovuzga yuborilgan. Toshxovuzda u uch yil tutqunlikda yashaydi. So'ngra bir necha yil u Qozog'iston, Turkmanistonda yashagan. Ajiniyoz Turkmanistonda yashagan yillari turkman shoiri Maxtumqulining ko'plab she'rularini qunt bilan o'rghanib, so'ngra she'rularini qoraqolpoq tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Shoirning tarjimai holi ham sarguzashtlarga boy bo'lib o'tgan. U juda ko'p o'lkalarni kezgan, sayohat qilgan. Rossiya imperiyasi qaramog'idagi Orenburg gubernatorligida ham ancha vaqt yashagan, degan ma'lumotlar bor. U Qoraqalpoq ziyolilari orasida birinchilardan bo'lib oxund darajasiga erishgan etuk shaxs. U keyinchalik o'z ovulida yosh bolalarga ta'lim-tarbiya bergen. Bo'zato've, Qamis, Beget degan qishloqlarida maktab ochib qoraqalpoq bolalarga ilm-fan sirlarini o'rgatgan. O'zidan bir necha she'riy kitoblar meros qoldirgan. Ajiniyoz 1878-yilda vafot etib, o'zi 'ilib o'sgan vataniga Qo'siriq bobo qabristoniga dafn etilgan. Istiqlol yillarida shoir ijodiga katta e'tabor bilan qaralmoqda. 1999-yil 18-dekabrda Ajiniyozning 175 yilligiga bag'ishlangan yubiley tantanalari Nukus shahar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqiy teatrida bo'lib o'tdi. 2014-yilda 190 yilligi keng nishonlandi. 2024-yilda 200 yilligi xalqaro miqyosida nishonlandi. Unda Ajiniyoz to'g'risida iliq so'zlar gapirilib, uni hayoti va ijodini yanada ko'proq o'rghanishga imkoniyatlar yaratildi. Ajiniyoz o'z she'riy-asarlari orqali insonlarni ulug'lab, ulardan hayotda buyuk zot yo'qligini, ular kuchli qudratga ega ekanligini aytib o'tadi. Ajiniyoz she'rulari hozirgi kungacha taniqli san'atkorlar tomonidan qo'shiq bo'lib kuylab kelinmoqda.

Sherg'ozixon madrasasida qoraqolpoq shoiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'rgazma 1995-yilda tashkil etildi. Ko'rgazmada Qaraqolpoq xalqining o'tmishi, buguni aks ettirilgan. Muzeyni tomosha qilar ekansiz kiraverishda ekspozitsiyaning o'ng tamonida daxlizda joylashgan qoraqolpoq xalqining sevimli va buyuk shoiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li ko'rgazmasini ko'rasiz.

Unda o‘zbek, qoraqolpoq xalqining ajralmas o‘tmishtarixi, madaniyati, milliy qadryatlari, urf odatlari, Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li hayoti va ilmiy merosini aks ettirib beruvchi noyob eksponatlar bilan tanishishingiz mumkin. Ekspozitsiya vitrinalari ichida shoirning hayoti va ijodida oid ilmiy asarlari, tarixdan so‘zlovchi qo‘lyozma risolalar, shoir suratlari tushirilgan laganchalar va qoraqolpoq milliy cholg‘u asboblari qo‘yilgan.

Haqiqatdan ham Ajiniyozning she’riy-asarlari insonlarni vatanga muhabbat, yosh avlodlarni barkamol avlod bo‘lib yetishishiga undaydi.

Ajiniyozning adabiy merosidan bizga **yuzga yaqin she’r va dostonlari** etib kelgan. She’rlarida vatanparvarlik insonparlik g‘oyalari kuylangan. Uning “Kerak”, “Bo‘ladi”, “Bo‘lmasa”, “Yaxshi yigitlar” kabi asarlarida xalq orasida keng tarqalgan. Uning hayoti haqida yozuvchi K.Sultonov “Ajiniyoz” romanini (1976), I. Yusupov “Ajiniyoz” opera librettosini (1989y) yaratgan. Biroq bor yo‘g‘i 54 yilgina umr kechirgan Ajiniyoz bizga katta ilmiy meros yaratib qoldira oladi. Nukus shahrining xushmanzara joyida shoir nomi bilan ataluvchi maydon barpo etildi va Ajiniyozga haykal o‘rnatildi.

2024-yil 16-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siboy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishollash to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

Ajinyoz Qo‘siboy o‘g‘lining Mo‘ynoq tumanidagi qabri obodonlashtirildi va unga yodgorli o‘rnatildi, hamda Ajinyoz Qo‘siboy o‘g‘li nomidagi ekopark barpo etildi. Mamlakatimizdagi oily va o‘rta maxsus, professional, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari va mahallarida taniqli yozuvchi va shoirlar, olimlar ishtirokida Ajinyoz Qo‘siboy o‘g‘li taalludining 200 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuv va adabiy kechalar uyushtirildi. Shu jumladan “Ichan qa’la” davlat muzey qo‘riqxonasida ham uchrashuv, adabiy kechalar, ochiq dars va ma’ruzalar o‘tkazildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR.

1. D. Bobojanov, M. Abdurasulov. “Firdavsmonand shahar”. Xiva 2008.
2. K. Xudayberganov. “Xiva” dunyodagi eng ko‘hna qal’a. Toshkent 2012.3. A. Abdurasulov. “Xiva”. Xiva 1994.
4. Ejiniyoz. “Tanlamali shigarmalari”. Nokis 1994.
5. Berdaq. “Tanlamali Shigarmalarining jiynagi”. Nokis 1997.
7. Ajiniyaz atindag‘ No‘kis memlrketlik pedinstitutina 60 jil.No‘kis-1994
8. Diysenboy Saytov. “XVIII-XIX asirlerdegi qaraqalpaq shayirlari shig‘armalari nin tili”.No‘kis-1990.Ibrayim